



DUAL TA'LIM SHAKLINING TA'LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Yusupova A.P.

Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: professional ta'lim tizimi, kasb standarti, ta'lim standartlari, klassifikator, mehnat bozori ehtiyojlari, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, malaka talablari, ta'lim dasturlari, umumiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya, integrasiya, o'qitish natijalari.

Ключевые слова: система профессионального образования, профессиональный стандарт, образовательные стандарты, классификатор, потребности рынка труда, практико-ориентированное образование, квалификационные требования, образовательные программы, общая компетенция, профессиональная компетенция, интеграция, результаты обучения.

Key words: professional education system, professional standard, labor market needs, practice-oriented education, qualification requirements, educational programs, general competence, professional competence, integration.

Kirish. Dual ta'lim pedagogikada qadimdan mavjud bo'lib, dunyoda turli mamlakatlarda o'zini yaxshi isbotlagan. Dual ta'limni qo'llashning asosiy yo'nalishlari oliy va professional ta'limdir. Dual ta'lim O'zbekistonda nisbatan yaqinda davrlardan boshlab kirib kelgan bo'lsada, allaqachon yangi professional xodimlarni tayyorlash uchun muhim yondashuv hisoblanadi. Dual o'qitishning o'ziga xos xususiyati amaliy tajriba va nazariy mashg'ulotlarning birlashuvidir. Aynan professional ta'lim tizimidagi ana shunday yangicha yondashuv kelajakdagi yuqori malakali mutaxassislarni sifatli tayyorlashni ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. O.Yu.Glayssnerdual o'quv dasturi bo'yicha o'qiyotgan ta'lim oluvchilarning iqtisodiy mustaqilligini, ular o'qish davomida allaqachon oz miqdorda maosh olishlarini qayd etadi. Shu bilan birga, bitiruvchi ta'lim muassasasini tugatgandan so'ng ish beruvchini kasb bo'yicha uzoq muddatli ish tajribasi bilan ta'minlashi mumkin.[3, 59-60] Dual dasturlarni tashkil etishda jiddiy qiyinchiliklar ishlab chiqarishda malakali o'qituvchilarning yetishmasligi, korxonalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni tashkil etish bo'yicha talablarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati va boshqalardir.

Dual ta'limni tashkil etishdagi muammolar har doim ham korxonada xodimlari tomonidan emas, ta'lim oluvchilarning ishlab chiqarish ishlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.[4] Bundan tashqari, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra[5], dual ta'lim dasturlarini amalga oshirishning zarur sharti - bu o'quv jarayonini individuallashtirish, zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini akademik guruhlariga yo'naltirish, masofaviy ta'limni faollashtirish, hozirda bir xil fanlarni individual dastur bo'yicha o'rganayotgan ta'lim oluvchilarning birlashtirilgan guruhlarini yaratishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Dual ta'lim olish shakli - bu kasbiy ta'limning tarixan yig'ilib kelingan shakli bo'lib, Evropaning siyosiy, iqtisodiy, va texnologik iyerarxiyasi bilan bog'liq. Bugungi kunda ushbu ta'lim olish shakli Germaniya, Avstriya, Daniya, Gollandiya, Shveysariyada muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. "Dualizm", "dual", "duallistik", atamaları (lotin tilidan dualis-ikkilamchi) bitta maxsus umummetodologik tushunchani ifodalaydi va bilimning turli sohalarida yetarlicha keng tarzda qo'llaniladi.[6]

Tahlillar va natijalar. Dual ta'lim – ta'lim dasturining nazariy, o'quv-amaliy qismi professional ta'lim muassasasida, malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qism korxonada (tashkilot)da tashkil etiladigan ta'lim olish shakli.

Dual ta'lim olish shaklida (keying o'rinda dual ta'lim) o'qitishning asosiy maqsadi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va ularni ishlab chiqarish sharoitida moslashuvini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasida dual ta'lim, ta'lim olish shakli sifatida qabul qilindi. Xususan, ushbu qonunning 17-moddasida Dual ta'lim – ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshirilishi belgilandi.[1]

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori bilan "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida nizom" tasdiqlandi. Ushbu nizomda dual ta'limni tashkil etish va tashkilot, professional ta'lim muassasasi va ta'lim oluvchilarning vazifalari, huquqlari hamda majburiyatlari belgilab berildi.[2]

Mazkur hujjatga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini hayotga tatbiq qilish maqsadida professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim joriy etildi. Ushbu ta'lim asosida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan o'quvchilarga ish beruvchi bilan tuzilgan muddatli mehnat shartnomasiga muvofiq ish haqi to'lash belgilangan.



Dual ta'lim dasturi - professional ta'lim muassasasi va tashkilotda ta'lim oluvchining muayyan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatini va mehnat vazifalarini bajarishiga qaratilgan davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dastur fan (modul)lari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to'plamidir.

Dual ta'limning ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga asos bo'lgan me'yoriy hujjatlar quyidagilar: 1) Kasb standartlari; 2) Ta'lim standartlari; 3) Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha metodik tavsiya va yo'riqnomalar; 4) Professional ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatori.

Dual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish jarayonidagi hozirgi kundagi mavjud muammolar:

- √ Kasb standartlarining mazmuni bugungi kun talablariga mos emasligi;
- √ Talab yuqori bo'lgan ayrim kasblarning kasb standartlari to'liq ishlab chiqilmaganligi;
- √ Kasb standartlar asosida ta'lim dasturlari ishlab chiqish metodologiyasi mavjud emasligi.

Dual ta'lim dasturini ishlab chiqish jarayoni va tamoyillari. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan dual ta'lim dasturini maqsadi ta'lim oluvchilarga zaruriy bilim va ko'nikmalarni hamda kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirishdan iborat.

Dasturning maqsadi - o'qitish natijalaridan kelib chiqib shakllantiriladi.

Ta'lim oluvchilar bitirgandan keyin nima qila oladi? Boshqacha qilib aytganda, kasbiy sohasi talablarini tavsiflash kerak; Ish doirasida o'z vazifalarini samarali bajarish uchun o'quvchi nimani o'zlashtirishi kerak? Shuning uchun o'quv dasturiga qo'yiladigan talablarni shakllantirish zarur; Ta'lim oluvchi ish doirasida o'z vazifalarini samarali bajara olishini qanday aniqlayman? Boshqacha aytganda, baholash talablarini shakllantirish lozim.

Dual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning o'ziga xosligi.

Kvalifikatsiyalarga bir nechta kasb standartlar mos kelishi mumkin.

Kasbning kvalifikatsiyasiga mos ravishda ishlab chiqiladi.

Kasb standartining mehnat funksiyalari va mehnat harakatlaridan foydalaniladi. (40711507-Temir yo'l transportida elektr ta'minoti). Quyida mana shu kasb bo'yicha dual ta'lim dasturini ishlab chiqish algoritmini yoritamiz.

Ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor qaratildi.

- √ Kasbiy kompetensiyalarni aniqlash uchun zarur mehnat vazifalari va mehnat xarakatlari mazmuniga muvofiq belgilandi; (1-jadval)
- √ Zarur bilim va ko'nikmalar asosida o'qitish natijalari va professional modullar aniqlandi; (2-3-jadval)
- √ Har bir o'qitish natijalari bo'yicha baholash mezonlari belgilandi(4-jadval)



I-jadval

Kasb standartidan foydalanib dual ta'limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish. (40711507-Temir yo'l transportida elektr ta'minoti kasbi bo'yicha)

Reestr bo'yicha kodi	Mehnat funksiyalari	Mehnat harakatlari	Kasbiy kompetensiyalar nomi
A/01.2	Kontakt tarmog'iga, elektr uzatish liniyalariga yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash uchun tayyorgarlik ko'rish.	Kontakt tarmog'ini, elektr uzatish liniyalarini yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashga tayyorgarlik ko'rish uchun ish tartibi va texnologik operatsiyalarni bajarish xususiyatlari bilan tanishish;	Kasbiy kompetensiyalar nomi
		Vazifa asosida kontakt tarmog'ini, elektr uzatish liniyalarini yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashga tayyorgarlik ko'rish uchun vositalarni, himoya va o'rnatish vositalarini tanlash;	
		Kontakt tarmog'ini, elektr uzatish liniyalarini yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va muntazam ta'mirlashga tayyorgarlik ko'rish uchun ehtiyot qismlar va materiallarni tanlash;	
		Kontakt tarmog'ini, elektr uzatish liniyalarini yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va muntazam ta'mirlashga tayyorgarlik ko'rish uchun tashish ishlarini bajarish.	



A/02. 2	Kontakt tarmog'iga, elektr uzatish liniyalariga yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashni amalga oshirish.	Kontakt tarmog'ini magistral yo'l bo'ylab keyinchalik o'rnatish uchun tarqatish maqsadida temir yo'l liniyalarida demontaj qilish;	KK-2. Kontakt tarmog'iga, elektr uzatish liniyalariga yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlarini bajarish.
		Kontakt tarmog'idan va elektr uzatish liniyasidan chiqarilgan armaturalarni demontaj qilish;	
		Kontakt tarmog'ining armatura va tayanchlarini tozalash;	
		Kontakt tarmog'ining armatura va tayanchlarini bo'yash;	
		Mahalliy qoidalarda belgilangan o'z vakolati doirasida asboblarni, moslamalarni, inventarlarni, himoya va o'rnatish vositalarini ta'mirlash.	
		Kuchlanish uzilgan va kuchlanish ostida bo'lgan qismlardan uzoqda bo'lgan kontakt tarmog'i va elektr uzatish liniyalariga oddiy texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashni bajarishga tayyorgarlik ko'rish uchun vositalarni, himoya va o'rnatish vositalarini tanlash;	
		Kuchlanish uzilgan va kuchlanish ostida bo'lgan qismlardan uzoqda bo'lgan kontakt tarmog'i va elektr uzatish liniyalariga oddiy texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashni bajarishda himoya va o'rnatish uskunalarning yaroqliligini tekshirish;	

II-jadval

Kasbiy kompetensiyalardan foydalanib dual ta'lim dasturida o'qitish natijalarini aniqlash.

Kasbiy kompetensiya	Bilim	Ko'nikma	O'qitish natijasi
<p>KK-1. Kontakt tarmog'iga, elektr uzatish liniyalariga yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash uchun tayyorgarlik ko'rish ishlarini amalga oshirish.</p>	<p>- Kontakt tarmog'ini, elektr uzatish liniyalarini yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashga tayyorgarlik bo'yicha me'yoriy-texnik va ko'rsatma beruvchi hujjatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>- Temir yo'llarni ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan darajada texnik ishlatish qoidalarini haqida ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>- Kontakt tarmog'ini, elektr uzatish liniyalarini yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashning texnologik jarayoni haqida ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>- Ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan miqdordagi kontakt tarmog'ining maqsadi va joylashuvi, elektr uzatish liniyalarini hajmi haqida ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>- Qora va rangli metallarning xususiyatlari, ish bajarish uchun zarur bo'lgan darajada izolyatsiya materiallari haqida ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>- Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan miqdordagi simlar, kabeallar va simlarning sinflari va ko'ndalang kesimlari haqida ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>- Tashish mexanizmlari va uskunalarning qurilma va ishini bajarish tartibi haqida ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>- Ish vaqti va dam olish vaqtining xususiyatlari, poezdlar harakati bilan bevosita bog'liq bo'lgan temir yo'l transporti xodimlarining ayrim toifalarining ish sharoitlari, rasmiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan darajada ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>- Himoya va o'rnatish vositalaridan foydalanishning maqsadi va tartibi haqida ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>- Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan darajada mehnat muhofazasi, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi talablari haqida ma'lumotga ega bo'lish.</p>	<p>-Kontakt tarmog'ini, elektr uzatish liniyalarini yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashga tayyorgarlik ko'rish uchun asboblari, himoya va o'rnatish vositalarining yaroqliligini aniqlash;</p> <p>-Kontakt tarmog'ini, elektr uzatish liniyalarini yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashga tayyorgarlik ko'rish uchun asboblari va o'rnatish vositalarini yaroqliligini tekshira oladi;</p> <p>-Kontakt tarmog'ini va elektr o'tkazuvchi havo liniyalaridan foydalanish ishlarini bajara oladi.</p>	<p>1. Kontakt tarmog'ini va elektr o'tkazuvchi havo liniyalariga texnik xizmat ko'rsata oladi;</p> <p>2. Joriy ta'mirlash sifatini vizual aniqlash, himoya va o'rnatish vositalarini yaroqliligini tekshira oladi;</p> <p>3. Kontakt tarmog'ini va elektr o'tkazuvchi havo liniyalaridan foydalanish ishlarini bajara oladi.</p>



III-jadval

Dual ta'lim dasturlarida professional modullarni shakllantirish

O'qitish natijasi	O'quv modul mazmuni	Professional modul nomi
KK-1. 1. Kontakt tarmog'i va elektr o'tkazuvchi havo liniyalariga texnik xizmat ko'rsata oladi; 2. Joriy ta'mirlash sifatini vizual aniqlash, himoya va o'rnatish vositalarini yaroqliligini tekshira oladi; 3. Kontakt tarmog'i va elektr o'tkazuvchi havo liniyalaridan foydalanish ishlarini bajara oladi. KK-2. 1. Kontakt tarmog'i va elektr uzatish liniyalariga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlarini bajara oladi.	– kontakt tarmog'ining ahamiyati va tuzilishi; – ishchilar xavfsizligini ta'minlovchi tashkiliy va texnik tadbirlar; – kontakt simini ushlab turuvchi trosga ilishni va joylashuvi; – kontakt simini kuyishi va uni oldini olish choralari; –simlarning og'irligidan tushadigan yuklamalar; – qayd etuvchi konstrutsiyalarni qo'llash xususiyatlari; – tayanchlarni yerga mahkamlash usullari; – kontakt tarmog'idagi xavfli joylar; – kontakt tarmog'ida xavfsiz mexnat sharoitlarini tashkillashtirishda xodimlarga, montaj va himoya vositalariga talablar.	PM-1 Temir yo'l kontakt tarmog'i uskuna va jihozlari.

IV-jadval

Kasbning dual ta'lim dasturini o'zlashtirgan bitiruvchilarga qo'yilgan talablarni baholash.

Kodi	Kasbiy kompetensiyalar	Baholash mezonlari
KK-1.	Kontakt tarmog'iga, elektr uzatish liniyalariga yordamchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash uchun tayyorgarlik ko'rish ishlarini amalga oshirish.	1. Kontakt tarmog'I jihoz va uskunolari haqida ma'lumot bera oladi; 2. Kontakt tarmog'i va elektr o'tkazuvchi havo liniyalariga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash sifatini vizual aniqlash usullarini ayta oladi; 3. Kontakt tarmog'i va elektr o'tkazuvchi havo liniyalariga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash sifatini vizual aniqlay oladi.

Dual ta'lim dasturini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari: 1) Kasbiy kompetensiyalarni aniqlash ya'ni kasbiy kompetensiyalarni kasbiy standartdagi mehnat funksiyasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mehnat harakatlari mazmuniga muvofiq belgilash; 2) Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bilim va ko'nikmalar asosida o'qitish natijalari va o'quv (fan) modullarini



aniqlash; 3) “O‘qitish natijalari” ga erishilganlikni aniqlash uchun umumiy modul (fan) bo‘yicha va har bir mavzu kesimida alohida “Baholash mezonlari”ni belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosalar. Dual ta‘lim dasturlarni joriy etish bir qator muammolarni hal qilish va turli muammolarni bartaraf etish bilan bog‘liq. Bularga quyidagilar kiradi: dual dasturlarning turlarini, ularning tuzilishini, amalga oshirish muddatlarini belgilash; professional ta‘limi muassasalari amaliyotiga dual dasturlarni joriy etish holatlarini va ushbu dasturlar bo‘yicha kadrlar tayyorlash qoidalarini asoslash; dual dasturlarni amalga oshirish maqsadida tashkilotlar ichidagi va tashkilotlararo hamkorlik tizimini shakllantirish; bog‘langan darajalar va mutaxassisliklar nomenklaturasini tahlil qilish; kirish va nazorat - sertifikatlash tadbirlari tizimini yaratish (chunki hozirda dual dastur bo‘yicha o‘qish uchun nomzodlarni tanlashda yagona yondashuvlar mavjud emas) va qo‘shimcha ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bo‘yicha operatsiyalar majmuasini amalga oshirish (shu jumladan imtihonlar va yakuniy malaka ishlarini tayyorlash va himoya qilish) lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni
2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “Professional ta‘lim tizimida dual ta‘limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-son qarori.
3. Глайсснер О.Ю. Система высшего образования в Германии: великое множество путей // Alma mater. 2008. № 10. 59-60 с.
4. Ильин С. Н. Сущность и проблемы дуальной системы высшего образования в Нидерландах и Италии // Научные исследования в образовании. 2009. №6. 99-103 с.
5. Концепция образовательной деятельности вуза в условиях модернизации высшего профессионального образования дис. ... кандидата педагогических наук: 13.00.08 / Алтуниной Варвары Викторовны; [Место защиты: ФГАУ «Федеральный институт развития образования» (г. Москва)] Калининград 2012. 165-167 с.
6. Ешназарова.М.Й., Нурматов.Б.Х., “Дуал таълимнинг назарий асослари”. Асадемис Ресеарч, Узбекистан. Асадемис ресеарч ин едусатионал сиенсес волуме 2 | ИССУЕ 6 | 2021 ИССН: 2181-1385 Сиенсифис Жоурнал Импаст Фастор (СЖИФ) 2021: 5.723 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-1462-1467 с.

РЕЗЮМЕ

Maqolada hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining professional ta‘limi tizimini rivojlantirish uchun dolzarb bo‘lgan kasb standartlarning ta‘lim dasturlariga integratsiya qilish ko‘rib chiqilgan. Taklif etilayotgan ta‘lim dasturlarining talablarni qamrab, o‘quv va ishlab chiqarish tizimini birlashtirishga imkon beradi, bu esa mehnat bozorida xalq xo‘jaligining o‘rta bo‘g‘iniga talab qilinadigan raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim natijaga olib boradi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрена интеграция в образовательные программы профессиональных стандартов, актуальных в настоящее время для развития системы профессионального образования Республики Узбекистан. Охват предлагаемых образовательных программ требованиями позволяет объединить учебно-производственную систему, что гарантирует подготовку конкурентоспособных высококвалифицированных специалистов, востребованных на рынке труда для среднего звена народного хозяйства.

SUMMARY

The article examines the integration of professional standards into educational programs, which are currently relevant for the development of the professional education system of the Republic of Uzbekistan. The proposed educational programs cover the requirements and allow to combine the educational and production system, which guarantees the training of competitive highly qualified specialists required for the middle stage of the national economy in the labor market.